

Ўзбекистон Республикаси
Марказий банки томонидан
2026 йил “ 14 ” август да
93/4 - рақам билан
рўйхатга олинди



Ўзбекистон Республикаси
Марказий банки Бошқарув
Раиси ўринбосари

С.С.Носиров

**“БИЗНЕСНИ РИВОЖЛАНТИРИШ БАНКИ”
АКЦИЯДОРЛИК ТИЖОРАТ БАНКИ
УСТАВИГА ЎЗГАРТИРИШ ВА ҚЎШИМЧАЛАР**

Банк акциядорларининг Умумий
йиғилиши 2026 йил 29 июндаги
60-сонли қарори билан
“ТАСДИҚЛАНГАН”



Умумий йиғилиш раиси

С.С.Ходжаев

Тошкент ш.
2026 йил

“Бизнесни ривожлантириш банки” АТБ Уставига ўзгартиришлар

“Бизнесни ривожлантириш банки” АТБ акциядорларининг навбатдан ташқари умумий йиғилишининг 2026 йил 29 июндаги 60-сон қарори билан тасдиқланган “Бизнесни ривожлантириш банки” АТБ Уставига қуйидаги ўзгартиришлар киритилсин:

1. Банк Уставининг 16-банди қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

“16. Банкнинг устав капитали Ўзбекистон Республикаси миллий валютасида шакллантирилади ҳамда банк муассислари ва акциядорлари киритган пул маблағларидан ёки давлатнинг қимматли қоғозларидан ташкил топади, бундан қуйидаги ҳоллар мустасно:

банк акцияларини банкнинг кредиторлари орасида жойлаштириш ва банкнинг кредиторлар олдидаги пул мажбуриятлари бўйича ҳар қандай ҳуқуқларини (талабларини) ҳисобга олиш йўли билан уларнинг ҳақини тўлаш;

қимматли қоғозларни банк акцияларига айирбошлаш;

банкнинг жойлаштирилган бир турдаги акцияларини ушбу банкнинг бошқа турдаги акцияларига алмаштириш.

Банкнинг устав капиталини шакллантириш учун кредитга, гаровга олинган маблағлардан, шунингдек мажбурият юклатилган бошқа маблағлардан фойдаланишга йўл қўйилмайди.

Банкнинг устав капитали 4 979 083 510 289,25 (тўрт триллион тўққиз юз етмиш тўққиз миллиард саксон уч миллион беш юз ўн минг икки юз саксон тўққиз сўм 25 тийин) сўмни ташкил қилади.”.

2. Банк Уставининг 24-банди қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

“24. Банкнинг жойлаштирилган акциялари сони 41 753 320 841 (қирқ бир миллиард етти юз эллик уч миллион уч юз йигирма минг саккиз юз қирқ бир) дона бўлиб, шундан:

эгасининг номи ёзилган, оддий, ҳужжатсиз акциялар сони 41 744 320 841 (қирқ бир миллиард етти юз қирқ тўрт миллион уч юз йигирма минг саккиз юз қирқ бир) дона;

эгасининг номи ёзилган, имтиёзли, ҳужжатсиз акциялар сони 9 000 000 (тўққиз миллион) дона.”.

3. Банк Уставининг 29-банди қуйидаги мазмундаги хатбошилар билан тўлдирилсин:

“Банк овоз берувчи акцияларининг эллик фоизидан ортиғига эгалик қилувчи ёхуд овоз берувчи акциялари миқдори банкнинг бошқа ҳар бир акциядори улушига нисбатан кўп бўлган ҳамда овози қарор натижасига ҳал қилувчи таъсир кўрсатиши мумкин бўлган акциядор мажоритар акциядор деб эътироф этилади.

Агар мажоритар акциядорга қарорлар банкнинг ва бошқа акциядорларнинг манфаатларига зарар келтириши олдиндан аён бўлса, у мазкур қарорларни шахсий манфаатларини ҳисобга олиб қабул қилмаслиги, банк бошқарув органларининг

йиғилиши кун тартибига банкнинг ва бошқа акциядорларнинг манфаатларига мос келмайдиган масалаларни ёки ҳал этилиши банкнинг ва бошқа акциядорларнинг манфаатларига зарар етказиши олдиндан маълум бўлган масалаларни киритмаслиги шарт.

Банкнинг мажоритар акциядори ушбу юқорида назарда тутилган мажбуриятларни бажармаслик натижасида жамиятга ва бошқа акциядорларга етказилган зарар учун жавобгар бўлади.”.

4. Банк Устави қуйидаги мазмундаги 56-1-банди билан тўлдирилсин:

“56-1. Банкнинг кузатув кенгаши аъзоси, бошқарув раиси ёки аъзоси фидуциар мажбуриятларни бажармаслик натижасида банкка етказилган зарар учун жавобгар бўлади.

Банк кузатув кенгаши аъзоларининг, банк бошқаруви раиси ва аъзоларининг фидуциар мажбуриятлари қуйидагиларни ўз ичига олади:

вазифа ва мажбуриятларини амалга оширишда виждонан ҳаракат қилиб, банк ва акциядорлар манфаатларини энг кўп акс эттирувчи усуллардан фойдаланишни;

банк мол-мулкидан банкнинг уставига ва ички ҳужжатларига зид равишда ва (ёки) акциядорлар умумий йиғилишининг ва (ёки) кузатув кенгашининг қарорларисиз, шахсий манфаатларини кўзлаб фойдаланмасликни ҳамда ундан бошқа шахслар томонидан шу тарзда фойдаланилишига йўл қўймасликни;

банкнинг бизнес имкониятларидан ёки банк учун манфаатли бўлган объектлардан ўз вазифаларини бажариши муносабати билан ёки ўз мавқеидан келиб чиққан ҳолда, банкнинг тегишли бошқарув органлари розилигисиз, шахсий наф олиш мақсадида ёки бошқа шахслар манфаатларини кўзлаб, шундай наф олишга кўмаклашиш мақсадида фойдаланмасликни;


банкнинг асосий фаолияти йўналишларига хос бўлган соҳадаги тадбиркорлик фаолиятини банкнинг тегишли бошқарув органлари розилигисиз амалга оширмасликни;

қонунчиликка, банкнинг ички ҳужжатларига ва шартномага мувофиқ банк фаолияти тўғрисидаги махфий ахборотни ошкор қилмасликни;

ўз вазифаларини бажариш билан боғлиқ қарорлар қабул қилиш эвазига моддий қимматликлар олмасликни ёки бундан манфаатдор бўлган шахслардан мулкий манфаатдор бўлмасликни.

Қонунчиликда банк кузатув кенгаши аъзоларининг, банк бошқаруви раиси ва аъзоларининг бошқа фидуциар мажбуриятлари белгиланиши мумкин.”.

Кузатув кенгаши аъзоси



C.C. Ходжаев

“BIZNESNI RIVOJLANTIRISH BANKI” ATB AKSIYADORLARINING YILLIK UMUMIY YIG‘ILISHI

Toshkent sh. A.Navoiy ko‘chasi, 18 A

2026-yil 29-iyun, soat 10:00

60 - sonli B A Y O N N O M A

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB aksiyadorlarining umumiy yig‘ilish (keyingi o‘rinlarda - yig‘ilish) bank Kuzatuv kengashining **2026-yil 8-iyundagi** majlis qarori asosida masofadan turib elektron ovoz berish xizmati <http://evote.uz> orqali o‘tkazilishi belgilangan.

Yig‘ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo‘lgan aksiyadorlar ro‘yxati aksiyadorlarning **2026-yil 23-iyun** holatiga olingan reestri asosida tuzilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan majlisda bank Kuzatuv kengashi a‘zosi S.S.Xodjayev raislik qildi.

Yig‘ilishni o‘tkazish uchun kvorum mavjudligi to‘g‘risidagi axborotni e‘lon qilish uchun sanoq komissiyasi a‘zosi O.Xolyigitovga so‘z berildi.

Sanoq komissiyasi a‘zosi O.Xolyigitov quyidagilarni ma’lum qildi:

Qimmatli qog‘ozlarning markaziy depozitariysi tomonidan **2026-yil 23-iyun** holatiga berilgan bank aksiyadorlari reestriga muvofiq, ovoz berishda **47 707 199 248** ta aksiyadorga tegishli **47 698 199 248** dona ovoz berish huquqini beruvchi aksiyalar qatnashishi mumkin. Aksiyadorlarni ro‘yxatdan o‘tkazish vaqti tugaganda, umumiy miqdorda **47 448 528 352** dona ovoz beruvchi aksiyalarga ega bo‘lgan **10 ta** aksiyador ro‘yxatdan o‘tdi. Bu esa umumiy ovoz beruvchi aksiyalarning **99,47 foizini** tashkil etadi. O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 68-moddasi va bank Ustaviga asosan agar aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida ishtirok etish uchun ro‘yxatdan o‘tkazish tugallangan paytda jamiyatning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining jami 50 foizidan ko‘proq ovoziga ega bo‘lgan aksiyadorlar (ularning vakillari) ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lsa, aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi vakolatli (kvorumga ega) bo‘ladi. Shunga ko‘ra, aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishi kun tartibidagi barcha masalalar bo‘yicha qaror qabul qilish vakolatiga ega.

Yig‘ilish bayonini yuritish uchun yig‘ilish kotibi etib, Sh.J.Maxammadov nomzodi taklif qilindi va aksiyadorlar tomonidan ovoz berish yo‘li bilan bir ovozdan ushbu nomzod tasdiqlandi.

Shundan so‘ng, bank aksiyadorlari umumiy yig‘ilishi ochiq deb e‘lon qilindi va yig‘ilish kun tartibi ma’lum qilindi.

KUN TARTIBI:

1. Sanoq komissiyasi a‘zolari soni va shaxsiy tarkibini tasdiqlash;
2. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining reglamentini tasdiqlash;
3. “Biznesni rivojlantirish banki” ATB Kuzatuv kengashining 2025-yildagi faoliyati yakuni bo‘yicha hisoboti;
4. “Biznesni rivojlantirish banki” ATBning 2025-yildagi faoliyati natijalari, shu jumladan, biznes-reja ko‘rsatkichlarining bajarilishi bo‘yicha bank Boshqaruvining hisoboti va 2026-yilga belgilangan ustuvor vazifalar to‘g‘risida;

5. Bankning 2025-yil 31-dekabr holatiga buxgalteriya balansi hamda foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotini tasdiqlash;

6. Bankning 2023-yil yakuni bo'yicha taqsimlanmay qolgan foydasini hamda 2025-yil faoliyati yakuni bo'yicha olgan sof foydasini taqsimlash;

7. "Biznesni rivojlantirish banki" ATBning 2025-yil yakunlari bo'yicha 2024-2026-yillarda rivojlantirish strategiyasi ijrosi to'g'risidagi hisobotini tasdiqlash;

8. Bankning "Bank Kuzatuv kengashi to'g'risidagi" va "Bank Boshqaruvi to'g'risidagi" Nizomlarga kiritilayotgan qo'shimchalarni tasdiqlash to'g'risida;

9. Bankda korporativ boshqaruv tizimini 2025-yil yakuniga ko'ra o'tkazilgan mustaqil baholash natijalarini ko'rib chiqish;

10. "Biznesni rivojlantirish banki" ATBning ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish to'g'risida;

11. "Biznesni rivojlantirish banki" ATBning Ustaviga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida;

12. "Biznesni rivojlantirish banki" ATBning avval ro'yxatdan o'tkazilgan qimmatli qog'ozlar chiqarishlariga o'zgartirishlar va (yoki) qo'shimchalar kiritish va tasdiqlash to'g'risida;

13. "Biznesni rivojlantirish banki" ATBning 2025-yil ish faoliyati yakuni bo'yicha Xalqaro standartlarga muvofiq tayyorlangan auditorlik hisoboti va xulosasini tasdiqlash.

14. Bankning 2026-2027-yillar uchun bank faoliyatini tashqi auditdan o'tkazish maqsadida, auditorlik tashkilotini va uning xizmatiga to'lanadigan eng ko'p haq miqdorini belgilash.

1. Kun tartibidagi birinchi masala yuzasidan aksiyadorlardan bank Kuzatuv kengashi tomonidan tuzilgan Sanoq komissiyasining soni va shaxsiy tarkibini 1-ilovaga muvofiq tasdiqlash taklifi kiritildi:

Ovoz berish uchun quyidagi qaror matni ovozga qo'yildi:

"Biznesni rivojlantirish banki" ATB Sanoq komissiyasining soni va shaxsiy tarkibi 1-ilovaga muvofiq 1 yil muddatga tasdiqlansin.

- Sanoq komissiyasi a'zosi – Xolyigitov Olimjon Hamidullayevich;
- Sanoq komissiyasi a'zosi – Yusupov Zafar Usmanovich;
- Sanoq komissiyasi a'zosi – Obilova Shahlo Mahmudovna.

Ovoz berish natijalari:

Rozi – 47 448 528 352 ta ovoz (100%),

Qarshi – yo'q,

Betaraf – yo'q.

2. Kun tartibidagi ikkinchi masala yuzasidan yig'ilish ishtirokchilari umumiy yig'ilishni o'tkazish reglamenti bilan tanishtirildi hamda uni quyidagi tartibda tasdiqlash taklifi kiritildi:

- asosiy masalalar bo'yicha ma'ruzalar uchun – 5 daqiqagacha;
- qo'shimcha ma'ruzalar, muxokama va savol-javoblar uchun – 2 daqiqagacha;
- ovoz berish natijalarini sanab chiqish uchun tanaffus – 2 daqiqa.

Ovoz berish uchun quyidagi qaror matni ovozga qo'yildi:

"Biznesni rivojlantirish banki" ATB aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi reglamenti quyidagicha tasdiqlansin:

- asosiy masalalar bo'yicha ma'ruzachilarning chiqishlariga – 5 daqiqagacha;

- qo'shimcha chiqishlar, e'tiroz va muzokaralar uchun – 2 daqiqagacha;
- ovoz berish yakunlarini hisoblash uchun tanaffus – 2 daqiqa.

Ovoz berish natijalari:

Rozi – 47 448 528 352 ta ovoz (100%),

Qarshi – yo'q,

Betaraf – yo'q.

3. Kun tartibidagi uchinchi masala yuzasidan bank Kuzatuv kengashining 2025-moliyaviy yil davomida O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining qarorlari hamda Markaziy bank hujjatlari ijrosini ta'minlash, bank faoliyatini yanada takomillashtirish va aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qarorlarini bajarish borasida amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi hisoboti taqdim etildi.

Muhokamadan so'ng ovoz berish uchun quyidagi qaror matni ovozga qo'yildi:

1. Bankning hisobot yilidagi faoliyati bo'yicha bank Kuzatuv kengashining hisoboti 2-ilovaga muvofiq ma'qullansin.

Ovoz berish natijalari:

Rozi – 47 448 461 313 ta ovoz (99,9999%),

Qarshi – 67 039 ta ovoz (0,0001%),

Betaraf – yo'q.

4. Kun tartibidagi to'rtinchi masala yuzasidan bank Boshqaruvining 2025-moliyaviy yil yakunlari bo'yicha bank faoliyatining asosiy yo'nalishlari, jumladan, davlat organlari qarorlari va dasturlarida belgilangan vazifalar ijrosi, bank kapitalini oshirish, aktivlarni samarali boshqarish, mijozlar oldidagi majburiyatlarni bajarish hamda bank xizmatlarini rivojlantirish borasida amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi hisoboti taqdim etildi.

Muhokamadan so'ng ovoz berish uchun quyidagi qaror matni ovozga qo'yildi:

1. "Biznesni rivojlantirish banki" ATBning 2025-yildagi faoliyati natijalari, shu jumladan, biznes-reja ko'rsatkichlari bajarilishi bo'yicha bank Boshqaruvining hisoboti 3-ilovaga muvofiq ma'qullansin.

2. Bank Boshqaruvi tomonidan bankning mamlakat moliya bozorida barqaror, yanada raqobatbardosh bo'lishini ta'minlash borasida hisobot yili davomida olib borilgan tadbirlar, jumladan bank aktivlari hajmini bosqichma-bosqich oshirish, ularni xatarlilik darajasidan kelib chiqib to'g'ri tasniflash, muammoli aktivlarni saralash va bartaraf etish, bank foydasi hisobiga zarur miqdorlarda zaxiralar yaratish yuzasidan amalga oshirilgan ishlar ma'qullansin.

3. Bankning 2026-yildagi faoliyati asosiy yo'nalishlari sifatida:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining respublika hududlariga tashriflari davomida berilgan topshiriqlarning ijrosini belgilangan muddatlarda bajarish;
- 2026-yilga mo'ljallangan "Biznes-reja" ko'rsatkichlarini bajarish, bunda sof foyda hajmini oshirish;
- bankning kredit qo'yilmalari tarkibidagi muammoli kreditlar (NPL) xajmini tushirish;

- bankning xalqaro konsalting kompaniyalari bilan birgalikda ishlab chiqilgan uzoq muddatli rivojlanish strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish;
- bank faoliyatini raqamlashtirish borasida axborot texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish kabi masalalar belgilansin.

Ovoz berish natijalari:

Rozi – 47 448 469 752 ta ovoz (99,9999%),

Qarshi – 58 600 ta ovoz (0,0001%),

Betaraf – yo'q.

5. Kun tartibidagi beshinchi masala yuzasidan “Biznesni rivojlantirish banki” ATBning 2025-yildagi moliyaviy-xo'jalik faoliyati yakunlari, 2025-yil 31-dekabr holatiga buxgalteriya balansi va foyda va zararlar to'g'risidagi hisoboti ko'rib chiqildi.

Muhokamadan so'ng ovoz berish uchun quyidagi qaror matni ovozga qo'yildi:

1. Bank tomonidan 2025-moliyaviy yil yakuni bo'yicha topilgan sof foyda 503 029 723 464,63 (Besh yuz uch milliard yigirma to'qqiz million etti yuz yigirma uch ming to'rt yuz oltmish to'rt so'm 63 tiyin) so'm miqdorida bo'lib, amaldagi qonunchilikka muvofiq 2026-yil 1-yanvar holatiga foyda summasiga 12 400 871 318,70 (O'n ikki milliard to'rt yuz million sakkiz yuz etmish bir ming uch yuz o'n sakkiz so'm 70 tiyin) so'm tegishli tuzatish va korrektirovkalardan so'ng jami 515 430 594 783,33 (Besh yuz o'n besh milliard to'rt yuz o'ttiz million besh yuz to'qson to'rt ming etti yuz sakson uch so'm 33 tiyin) so'm miqdoridagi sof foydasini taqsimlash to'g'risidagi taklif e'tiborga olinsin.

2. “Biznesni rivojlantirish banki” ATBning 2025-yil 31-dekabr holatiga amaldagi qonunchilik talablari va qoidalariga asosan tuzilgan buxgalteriya balansi hamda foyda va zararlar to'g'risidagi hisoboti hamda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tuzilgan yillik moliyaviy hisobotlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Ovoz berish natijalari:

Rozi – 47 448 469 242 ta ovoz (99,9999%),

Qarshi – 58 600 ta ovoz (0,0001%),

Betaraf – 510 ta ovoz (0,0000%).

6. Kun tartibidagi oltinchi masala yuzasidan Bankning 2025-yil faoliyati yakuni bo'yicha foydasi va (yoki) zararlarini taqsimlash to'g'risidagi hisoboti ko'rib chiqildi.

Muhokamadan so'ng ovoz berish uchun quyidagi qaror matni ovozga qo'yildi:

1. Bankning 2025-yil faoliyati yakuni bo'yicha foydasi va (yoki) zararlarini taqsimlash to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

- foydaning 25 771 529 739,17 (Yigirma besh milliard etti yuz etmish bir million besh yuz yigirma to'qqiz ming etti yuz o'ttiz to'qqiz so'm 17 tiyin) so'mi yoki 5 foizi bank kapitali monandligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi Qonuni va bank Ustaviga asosan umumiy xaxira kapitali tarkibidagi Xaxira jamg'armasiga yo'naltirilsin;

- foydaning 51 543 059 478,33 (Ellik bir milliard besh yuz qirq uch million ellik to'qqiz ming to'rt yuz etmish sakkiz so'm 33 tiyin) so'mi yoki 10 foizi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 12-yanvardagi "Ilmiy-innovatsion ishlanma va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 24-sonli Qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-avgustdagi "Yoshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish va ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4433-sonli Qaroriga muvofiq Innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash jamg'armasiga yo'naltirilsin;

- "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonun talablaridan kelib chiqib, egasining nomi yozilgan bankning imtiyozli aksiyalari egalariga dividendlar bank Ustaviga ko'ra har bir aksiyaning nominal qiymatiga nisbatan 25 foiz miqdorida bankning zahira fondi hisobidan 268 312 500,0 (Ikki yuz oltmish sakkiz million uch yuz o'n ikki ming besh yuz so'm) so'm ajratilsin hamda qaror qabul qilingan kundan boshlab 60 (oltmish) kun ichida Қимматли қоғозлар марказий депозитарийси орқали акциядорнинг мавжуд банк ҳисобварағига қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартибда автоматик равишда тўлаб берилсин;

- foydaning qolgan 438 116 005 565,83 (To'rt yuz o'ttiz sakkiz milliard bir yuz o'n olti million besh ming besh yuz oltmish besh so'm 83 tiyin) yoki 85,00 foiz qismi hamda bankning 2023-yil yakuni bo'yicha taqsimlanmay qolgan 202 848 472 848,58 (Ikki yuz ikki milliard sakkiz yuz qirq sakkiz million to'rt yuz etmish ikki ming sakkiz yuz qirq sakkiz so'm 58 tiyin) so'm miqdoridagi mablag'lar o'tgan yildagi zararlarni qoplashga yo'naltirilsin.

Ovoz berish natijalari:

Rozi – 47 448 460 086 ta ovoz (99,9999%),

Qarshi – 59 827 ta ovoz (0,0001%),

Betaraf – 8 439 ta ovoz (0,0000%).

7. Kun tartibidagi yettinchi masala yuzasidan quyidagilar ma'lum qilindi:

Bank tomonidan 2025-yilda Strategiyada belgilangan maqsadlarga erishish, bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va asosiy ko'rsatkichlarini ijobiy tomonga o'zgartirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ko'rildi. Xalqaro moliya institutlari (Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki) va yetakchi konsalting kompaniyalari (KPMG, Ernst & Young) bilan hamkorlikdagi transformatsiya jarayonlari o'z samarasini berdi. Natijada, bankning moliyaviy holati mustahkamlandi va barqaror o'sish sur'atlari ta'minlandi.

Xususan, o'tgan yil davomida bankning aktivlari 6 trln so'mga yoki 19%ga ko'payib, 38,2 trln so'mga etkazildi. Kapital hajmi 973,9 mlrd so'mga yoki 23%ga o'sib, 5,3 trln so'mni tashkil etdi. Bank 2022-yildan buyon moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq zarar bilan faoliyat yuritib kelgan bo'lsa, 2025-yildan boshlab sof foyda (503 mlrd so'm) bilan faoliyat yurita boshladi. Kredit portfeli 2,1 trln so'mga yoki 9%ga ko'payib, 24,5 trln so'mni tashkil qildi. Shu bilan birga, muammoli kreditlar (NPL) ulushi 2024 yildagi 8,5%dan 2025-yilda 4,5%gacha (1,1 trln so'm) tushirildi. Depozit qoldig'i 4,5 trln so'mga yoki 42 foizga ko'payib, 15,2 trln so'mni tashkil etdi, bank daromadlari esa 1,9 barobarga oshdi.

Osiyo taraqqiyot banki bilan 6 ta yo'nalishda transformatsiya ishlari olib borildi. Shu bilan birga, yuridik shaxslar uchun "BRB Business" platformasi va mobil ilovasi ishga tushirildi. Kichik va o'rta biznes uchun kredit konveyer tizimi joriy etildi, natijada

kreditlarni ko'rib chiqish muddati yuridik shaxslar uchun 7 kundan 1 kunga, chakana kreditlar uchun esa 3 kundan 5 daqiqagacha qisqartirildi. "BRB-TECH" IT markazi tashkil etilib, 2025-yilda 23 ta yangi loyiha amalga oshirildi. Shuningdek, "Process Mining" tizimini joriy etish orqali 1792 ta biznes jarayon avtomatlashtirildi va operasion samaradorlik (CIR) ko'rsatkichi 49,1% dan 39,5% gacha kamaytirildi. Risklarni boshqarish tizimi xalqaro standartlar asosida takomillashtirildi, jumladan, risk bosh direktoriga kredit qo'mitasi va boshqaruvda veto huquqi berildi.

Joriy yilda Bank 2027-2030 yillarga mo'ljallangan uzoq muddatli rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqadi. OTB bilan transformasiya ishlari davom ettiriladi, xususan, RM tracking platformasi ishga tushiriladi va nomoliyaviy xizmatlar tizimi kengaytiriladi. Sun'iy intellekt (AI) texnologiyalaridan faol foydalanish maqsadida maxsus AI laboratoriyasi tashkil etiladi, kreditlashda AI-skoring va chat-botlar kabi innovasion echimlar joriy qilinadi. Shuningdek, kadrlar salohiyatini oshirish uchun mahalliy va xorijiy biznes maktablar bilan hamkorlik yo'lga qo'yiladi.

Muhokamadan so'ng ovoz berish uchun quyidagi qaror matni ovozga qo'yildi:

1. *"Biznesni rivojlantirish banki" ATBning 2025-yil yakunlari bo'yicha 2024-2026-yillarda rivojlantirish strategiyasi ijrosi to'g'risidagi hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.*

Ovoz berish natijalari:

Rozi – 47 448 461 313 ta ovoz (99,9999%),

Qarshi – 67 039 ta ovoz (0,0001%),

Betaraf – yo'q.

8. Kun tartibidagi sakkizinchi masala yuzasidan quyidagilar ma'lum qilindi:

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuniga aksiyadorlik jamiyatlari ijro organlari kuzatuv kengashi a'zolarining fidutsiar majburiyatlarini, majoritar aksiyadorlarining umumiy majburiyatlarini hamda ularning javobgarligini aniqlashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligi ta'kidlab o'tildi.

Mazkur qonunga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalardan kelib chiqib, bank Kuzatuv kengashi hamda bank Boshqaruvi to'g'risidagi nizomlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Muhokamadan so'ng ovoz berish uchun quyidagi qaror matni ovozga qo'yildi:

1. *"Biznesni rivojlantirish banki" ATB Boshqaruvi to'g'risida"gi nizomga kiritilayotgan qo'shimchalar 5-ilovaga muvofiq;*

"Biznesni rivojlantirish banki" ATB Kuzatuv kengashi to'g'risida"gi nizomga kiritilayotgan qo'shimchalar 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. *Bank Kuzatuv kengashi va bank Boshqaruvi zimmalariga bank faoliyatini yuritish va uni boshqarishda amalga kiritilgan Nizomlar asosida ish tashkil qilish vazifasi yuklatilsin.*

Ovoz berish natijalari:

Rozi – 47 448 528 352 ta ovoz (100%),

Qarshi – yo'q.

Betaraf – yo'q.

9. Kun tartibidagi to'qqizinchi masala yuzasidan quyidagilar ma'lum qilindi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 24-apreldagi "Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4720-sonli Farmoni asosida hamda Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish Hukumat komissiyasining 2016-yil 11-fevraldagi 02-02/1-187-sonli majlis bayoni bilan Korporativ boshqaruv kodeksi tasdiqlangan.

Bank aksiyadorlarining navbatdan tashqari Umumiy yig'ilishida "Biznesni rivojlantirish banki" ATB tizimida Korporativ boshqaruv kodeksiga rioya etish majburiyatini qabul qilish to'g'risida qaror qabul qilingan.

Korporativ boshqaruv kodeksi talablariga asosan aksiyadorlik jamiyatida korporativ boshqaruv tizimini baholash amalga oshirilishi belgilangan bo'lib, 2026-yil 25-mayda mustaqil baholovchi tashkilot "Investment Management Group" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan "Biznesni rivojlantirish banki" ATBning korporativ boshqaruv tizimi baholandi va taqdim etilgan hulosaga muvofiq 740 ballni tashkil etib, "Yuqori" deb topildi (Baholash hulosasi ilova qilinadi).

Muhokamadan so'ng ovoz berish uchun quyidagi qaror matni ovozga qo'yildi:

1. "Biznesni rivojlantirish banki" ATBning "Investment Management Group" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan 2025-yil yakunlari bo'yicha o'tkazilgan Korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalari ma'lumot uchun qabul qilinsin va 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Ovoz berish natijalari:

Rozi – 47 448 469 242 ta ovoz (99,9999%),

Qarshi – 58 600 ta ovoz (0,0001%),

Betaraf – 510 ta ovoz (0,0000%).

10. Kun tartibidagi o'ninchi masala yuzasidan quyidagilar ma'lum qilindi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-sentabrdagi PQ-312-sonli qaroriga asosan "Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi" MChJning (keyingi o'rinlarda – Jamg'arma) mol-mulkklarini baholashdan o'tkazmagan holda uni "Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" aksiyadorlik jamiyatiga (keyingi o'rinlarda – Kompaniya) qo'shib yuborilishi topshirig'i berilgan.

Bunda:

Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasining (keyingi o'rinlarda – Jamg'arma) ustav kapitalidagi bank ulushini nominal (balans) qiymatiga kamaytirish hisobiga Jamg'armaning Raqamli transformatsiya markazi hamda 14 ta Kichik biznesga ko'maklashish markazlari ustav kapitalidagi ulushlari bankka o'tkazilishi;

hamda bank ustav kapitalidagi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ulushini nominal (balans) qiymatiga kamaytirish hisobiga bankning Jamg'arma ustav kapitalidagi 100 foiz ulushi Iqtisodiyot va moliya vazirligining Kompaniyaning ulushini oshirish hisobiga Kompaniyaga o'tkazilishi belgilangan.

Jamg'arma ustav kapitali uning yagona ta'sischisi – "Biznesni rivojlantirish banki" ATB tomonidan 1 000 000 000 000,00 (Bir trillion) so'm miqdorida pul mablag'lari va asosiy vositalar bilan to'liq shakllantirilgan.

Yuqoridagi qaror ijrosini ta'minlash maqsadida, Jamg'armaning "Raqamli transformatsiya markazi" hamda 14 ta "Kichik biznesga ko'maklashish markazi" mas'uliyati cheklangan jamiyatlari ustav kapitalidagi jami 290 000 000 000,00 (Ikki yuz

"Biznesni rivojlantirish banki" ATB
ASLIGA TO'G'RI

to'qson milliard) so'mlik ulushlari bankka o'tkazilgan hamda Jamg'arma ustav kapitali 710 000 000 000,00 (Yetti yuz o'n milliard) so'm etib belgilangan, uning yangi tahrirdagi ustavi tasdiqlangan va qonunchilikda belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 19-moddasiga asosan, Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyalarning nominal qiymatini kamaytirish yoki aksiyalarning umumiy sonini qisqartirish yo'li bilan, shu jumladan aksiyalarning bir qismini keyinchalik bekor qilgan holda jamiyat tomonidan aksiyalarni olish yo'li bilan kamaytirilishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Bank ustav kapitali miqdorini 710 000 000 000,00 (Yetti yuz o'n milliard) so'mga kamaytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Biroq, Qonunning 16-moddasiga muvofiq, Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyadorlar olgan jamiyat aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi va O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida ifodalanadi. Jamiyat tomonidan chiqariladigan barcha aksiyalarning nominal qiymati bir xil bo'lishi kerak.

Shunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hisobidagi nominal qiymati 119,25 so'm (bir yuz o'n to'qqiz so'm yigirma besh tiyin) so'm bo'lgan 5 953 878 407 (Besh milliard to'qqiz yuz ellik uch million sakkiz yuz yetmish sakkiz ming to'rt yuz yetti) dona oddiy, qiymati 710 000 000 034,75 (Yetti yuz o'n milliard o'ttiz to'rt so'm yetmish besh tiyin) so'mlik aksiyalar bekor qilinib muomaladan chiqarilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bunda, topshirilgan aktivlar (ulushlar) va bekor qilinadigan aksiyalarning umumiy summasi o'rtasidagi 34,75 (O'ttiz to'rt so'm 75 tiyin) so'm miqdordagi farq jamiyatning ustav fondini ko'paytirilishida yoki kamaytirilishida davlat ulushi hisobida inobatga olinadi.

Muhokamadan so'ng ovoz berish uchun quyidagi qaror matni ovozga qo'yildi:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-sentabrdagi PQ-312-sonli qarori ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. "Biznesni rivojlantirish banki" ATB ning ustav fondi (ustav kapitali) O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hisobidagi nominal qiymati 119,25 so'm (bir yuz o'n to'qqiz so'm yigirma besh tiyin) so'm bo'lgan 5 953 878 407 (Besh milliard to'qqiz yuz ellik uch million sakkiz yuz yetmish sakkiz ming to'rt yuz yetti) dona egasining nomi yozilgan hujjatsiz shakldagi oddiy aksiyalarni qisqartirish orqali 710 000 000 034,75 (Yetti yuz o'n milliard o'ttiz to'rt so'm yetmish besh tiyin) so'mga kamaytirilsin.

Bunda, topshirilgan aktivlar (ulushlar) va bekor qilinadigan aksiyalarning umumiy summasi o'rtasidagi 34,75 (O'ttiz to'rt so'm 75 tiyin) so'm miqdordagi farq Bankning keyingi ustav fondi o'zgarishida davlat ulushi hisobida inobatga olinadi.

3. "Biznesni rivojlantirish banki" ATB ning ustav fondi (ustav kapitali) kamaytirilishi munosabati bilan Bankning ustav fondi miqdori 4 979 083 510 289,25 (To'rt trillion to'qqiz yuz etmish to'qqiz milliard sakson uch million besh yuz o'n ming ikki yuz sakson to'qqiz so'm 25 tiyin) so'mni tashkil etsin va nominal qiymati 119,25 (bir yuz o'n to'qqiz so'm yigirma besh tiyin) so'm bo'lgan 41 744 320 841 (Qirq bir milliard etti yuz qirq to'rt million uch yuz yigirma ming sakkiz yuz qirq bir) dona egasining nomi yozilgan hujjatsiz shakldagi oddiy aksiyalardan iborat etib belgilansin.

4. "Biznesni rivojlantirish banki" ATB ning 2024-yil 17-oktabrdagi P0006-32-son (identifikatsiya raqami: RU132P0006R7) bilan ro'yxatga olingan qo'shimcha aksiyalar chiqarilishi to'g'risidagi qaroriga tegishli o'zgartirishlar kiritilsin.

Ovoz berish natijalari:

Rozi – 47 448 519 913 ta ovoz (99,99998%),

Qarshi – 8 439 ta ovoz (0,00002%),

Betaraf – yo'q.

11. Kun tartibidagi o'n birinchi masala yuzasidan quyidagilar ma'lum qilindi:

O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 19-moddasiga muvofiq, Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish to'g'risidagi va jamiyat ustaviga tegishli o'zgartirishlar kiritish haqidagi qarorlar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinishini ta'kidlab o'tildi.

Bank ustav fondi kamaytirilishi munosabati bilan "Biznesni rivojlantirish banki" ATB ustaviga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish lozimligi bildirildi.

Yig'ilish davomida yuqoridagi holatlarni inobatga olib, Bankning ustaviga tegishli o'zgartirish kiritish loyihasini aksiyadorlarga ko'rib chiqish uchun taqdim etildi.

Muhokamadan so'ng ovoz berish uchun quyidagi qaror matni ovozga qo'yildi:

1. "Biznesni rivojlantirish banki" ATBning ustav fondi (ustav kapitali) kamaytirilishi munosabati bilan bankning Ustaviga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar 8-ilovaga muvofiq tasdiqlansin va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilsin.

Ovoz berish natijalari:

Rozi – 47 448 528 352 ta ovoz (100%),

Qarshi – yo'q,

Betaraf – yo'q.

12. Kun tartibidagi o'n ikkinchi masala yuzasidan quyidagilar ma'lum qilindi:

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2009-yil 30-avgustda 2000 raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "Qimmatli qog'ozlar emissiyasi va emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish" qoidalariga asosan "Biznesni rivojlantirish banki" ATB ning avval ro'yxatdan o'tkazilgan qimmatli qog'ozlar chiqarishlariga o'zgartirishlar va (yoki) qo'shimchalar kiritish va tasdiqlash shartligi ma'lum qilindi.

Yig'ilish davomida yuqoridagi holatlarni inobatga olib, Bankning avval ro'yxatdan o'tkazilgan qimmatli qog'ozlar chiqarishlariga kiritilgan o'zgartirishlar va (yoki) qo'shimchalarning matni loyihasini aksiyadorlarga ko'rib chiqish uchun taqdim etildi.

Muhokamadan so'ng ovoz berish uchun quyidagi qaror matni ovozga qo'yildi:

1. "Biznesni rivojlantirish banki" ATBning qo'shimcha aksiyalar chiqarilishi to'g'risidagi qaroriga kiritilayotgan o'zgartirishlar matni 9-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Ovoz berish natijalari:

Rozi – 47 448 528 352 ta ovoz (100%),

Qarshi – yo‘q,

Betaraf – yo‘q.

13. Kun tartibidagi o‘n uchinchi masala yuzasidan quyidagilar ma‘lum qilindi:

2025-yil yakuni moliyaviy hisobotlari Tashqi audit tashkiloti tomonidan 2026-yil 21-mayda tasdiqlandi va hisobotni tayyorlashda MHXS-9 yangi metodologiyasi joriy qilinganligi sababli, kreditlarni shakllantirish zaxira summasi kamayishiga erishildi. Natijada MHXS-9 asosida shakllantirilgan zaxira summasi bank xarajatlarini kamayishiga olib keldi va 530,0 mlrd. so‘m sof foyda bilan yakunlashga erishildi.

Muhokamadan so‘ng ovoz berish uchun quyidagi qaror matni ovozga qo‘yildi:

1. “Biznesni rivojlantirish banki” ATBning 2025-yil moliya-xo‘jalik faoliyatini tekshirish yakunlari bo‘yicha o‘tkazilgan tashqi audit xulosasi 10-ilovaga muvofiq ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

Ovoz berish natijalari:

Rozi – 47 448 461 313 ta ovoz (99,9999%),

Qarshi – 67 039 ta ovoz (0,0001%),

Betaraf – yo‘q.

14. Kun tartibidagi o‘n to‘rtinchi masala yuzasidan quyidagilar ma‘lum qilindi:

O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 102-moddasiga asosan Jamiyatning moliyaviy hisobotida ko‘rsatilgan va aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishiga taqdim etiladigan moliyaviy hisobotdagi, buxgalteriya balansidagi, foyda va zararlar hisobvarag‘idagi ma‘lumotlarning ishonchliligi mulkiy manfaatlar Jamiyat yoki uning aksiyadorlari bilan bog‘liq bo‘lmagan auditorlik tashkiloti tomonidan tasdiqlangan bo‘lishi kerakligi, O‘zbekiston Respublikasining “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunining 35-moddasida tijorat banklari har yili majburiy auditorlik tekshiruvidan o‘tishi lozimligi belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 59-moddasi bilan majburiy auditorlik tekshiruvini o‘tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash, ushbu tashkilotning xizmatlariga to‘lanadigan eng ko‘p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to‘g‘risida qaror qabul qilish vakolati aksiyadorlar Umumiy yig‘ilishi vakolatiga kiritilgan.

Shu maqsadda, bank Boshqaruvining 2026-yil 19-iyundagi 6-sonli va Audit qo‘mitasining 2026-yil 19-maydagi 6-sonli yig‘ilishida bankning 2026-2027-yillardagi moliyaviy faoliyatini tashqi auditdan o‘tkazish masalalari muhokama qilinib, bankning “2026-2027-yillar 30-iyunda yakunlanadigan olti oy uchun oraliq ixcham konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlari” va “2026-2027-yillar 31-dekabrda yakunlanadigan yillik konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlari”ni tashqi auditdan o‘tkazish bo‘yicha ishlab chiqilgan texnik topshiriqlar va tashqi auditorning xizmatlariga to‘lanadigan eng ko‘p haq miqdorini aniqlash bo‘yicha dastlabki natijalar ma‘qullandi.

Kuzatuv kengashi majlis bayoni bilan bankning “2026-2027-yillar 30-iyunda yakunlanadigan olti oy uchun oraliq ixcham konsolidatsiyalashgan moliyaviy

hisobotlari” va “2026-2027-yillar 31-dekabrda yakunlanadigan yillik konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlari”ni tashqi auditdan o‘tkazish bo‘yicha ishlab chiqilgan texnik topshiriqlar tasdiqlanib, tashqi auditorning xizmatiga to‘lanadigan haq miqdori chegarasini katta to‘rtlik audit tashkilotlarining xizmat haqi bo‘yicha birlamchi takliflaridan kelib chiqqan holda ularning barchasi tanlovda ishtirok etishiga erishish maqsadida, qo‘shilgan qiymat solig‘i bilan birgalikda “2026-yil 31-dekabrda yakunlanadigan yillik konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlari”ni tashqi auditdan o‘tkazish xizmati bo‘yicha 4 000 000 000,0 (To‘rt milliard) so‘m, “2026-yil 30-iyunda yakunlanadigan olti oy uchun oraliq ixcham konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisoboti”ni tashqi auditdan o‘tkazish xizmati bo‘yicha 1 000 000 000,0 (Bir milliard) so‘m, “2027-yil 31-dekabrda yakunlanadigan yillik konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlari”ni tashqi auditdan o‘tkazish xizmati bo‘yicha 4 000 000 000,0 (To‘rt milliard) so‘m, “2027-yil 30-iyunda yakunlanadigan olti oy uchun oraliq ixcham konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisoboti”ni tashqi auditdan o‘tkazish xizmati bo‘yicha 1 000 000 000,0 (Bir milliard) so‘m tashqi auditorning xizmatlariga to‘lanadigan eng ko‘p haq miqdori eitb belgilash uchun aksiyadorlar umumiy yig‘ilishiga kiritilgan.

Muhokamadan so‘ng ovoz berish uchun quyidagi qaror matni ovozga qo‘yildi:

1. Bankning “2026 va 2027-yillar uchun yarim yillik oraliq ixcham konsolidatsiyalangan moliyaviy hisoboti” va “2026 va 2027-yillar uchun yillik konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlari”ni tashqi auditdan o‘tkazish xizmatlari uchun eng ko‘p haq miqdori 10 000 000 000,0 (O‘n milliard) so‘m etib belgilansin.

2. Audit qo‘mitasi hamda Kuzatuv kengashi tomonidan taqdim etilgan texnik topshiriqnomalar ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. Bank Boshqaruvi (S.Annaklichev) O‘zbekiston Respublikasining Davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchiligi hamda taqdim etilgan texnik topshiriqnomalar asosida tashqi auditorlik xizmati uchun xarid tanlovini amalga oshirsin.

4. Xarid tanlovi natijalariga ko‘ra g‘olib deb topilgan auditorlik tashkilotini belgilash va u bilan shartnoma tuzish maqsadida, qonunchilikda belgilangan tartibda bank aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi o‘tkazilsin.

Ovoz berish natijalari:

Rozi – 47 448 459 803 ta ovoz (99,9999%),

Qarshi – 68 549 ta ovoz (0,0001%),

Betaraf – yo‘q.

Ovoz berish yakunlari bo‘yicha Bank aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishida qabul qilingan qarorlar e‘lon qilindi.

QABUL QILINGAN QARORLAR:

Kun tartibidagi birinchi masala bo‘yicha:

1 “Biznesni rivojlantirish banki” ATB Sanoq komissiyasining soni va shaxsiy tarkibi 1-ilovaga muvofiq 1 yil muddatga tasdiqlansin.

Kun tartibidagi ikkinchi masala bo‘yicha:

2. “Biznesni rivojlantirish banki” ATB Aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishi reglamenti quyidagicha tasdiqlansin:

- asosiy masalalar bo'yicha ma'ruzachilarning chiqishlariga – 5 daqiqagacha;
- qo'shimcha chiqishlar, e'tiroz va muzokaralar uchun – 2 daqiqagacha;
- ovoz berish yakunlarini hisoblash uchun tanaffus – 2 daqiqa.

Kun tartibidagi uchinchi masala bo'yicha:

3. Bankning hisobot yilidagi faoliyati bo'yicha bank Kuzatuv kengashining hisoboti 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Kun tartibidagi to'rtinchi masala bo'yicha:

4. "Biznesni rivojlantirish banki" ATBning 2025-yildagi faoliyati natijalari, shu jumladan, biznes-reja ko'rsatkichlari bajarilishi bo'yicha bank Boshqaruvining hisoboti 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Kun tartibidagi beshinchi masala bo'yicha:

5. Bank tomonidan 2025-moliyaviy yil yakuni bo'yicha topilgan sof foyda 503 029 723 464,63 (Besh yuz uch milliard yigirma to'qqiz million etti yuz yigirma uch ming to'rt yuz oltmish to'rt so'm 63 tiyin) so'm miqdorida bo'lib, amaldagi qonunchilikka muvofiq 2026-yil 1-yanvar holatiga foyda summasiga 12 400 871 318,70 (O'n ikki milliard to'rt yuz million sakkiz yuz etmish bir ming uch yuz o'n sakkiz so'm 70 tiyin) so'm tegishli tuzatish va korrektirovkalardan so'ng jami 515 430 594 783,33 (Besh yuz o'n besh milliard to'rt yuz o'ttiz million besh yuz to'rt ming etti yuz sakson uch so'm 33 tiyin) so'm miqdoridagi sof foydasini taqsimlash to'g'risidagi taklif e'tiborga olinsin.

"Biznesni rivojlantirish banki" ATBning 2025-yil 31-dekabr holatiga amaldagi qonunchilik talablari va qoidalariga asosan tuzilgan buxgalteriya balansi hamda foyda va zararlar to'g'risidagi hisoboti hamda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tuzilgan yillik moliyaviy hisobotlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Kun tartibidagi oltinchi masala bo'yicha:

6. Bankning 2025-yil faoliyati yakuni bo'yicha foydasi va (yoki) zararlarini taqsimlash to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

- foydaning 25 771 529 739,17 (Yigirma besh milliard etti yuz etmish bir million besh yuz yigirma to'qqiz ming etti yuz o'ttiz to'qqiz so'm 17 tiyin) so'mi yoki 5 foizi bank kapitali monandligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni va bank Ustaviga asosan umumiy zaxira kapitali tarkibidagi Zaxira jamg'armasiga yo'naltirilsin;

- foydaning 51 543 059 478,33 (Ellik bir milliard besh yuz qirq uch million ellik to'qqiz ming to'rt yuz etmish sakkiz so'm 33 tiyin) so'mi yoki 10 foizi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 12-yanvardagi "Ilmiy-innovatsion ishlanma va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 24-sonli Qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-avgustdagi "Yoshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish va ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4433-sonli Qaroriga muvofiq Innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash jamg'armasiga yo'naltirilsin;

- "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonun talablaridan kelib chiqib, egasining nomi yozilgan bankning

imtiyozli aksiyalari egalariga dividendlar bank Ustaviga ko'ra har bir aksiyaning nominal qiymatiga nisbatan 25 foiz miqdorida bankning zahira fondi hisobidan 268 312 500,0 (Ikki yuz oltmish sakkiz million uch yuz o'n ikki ming besh yuz so'm) so'm ajratilsin hamda qaror qabul qilingan kundan boshlab 60 (oltmish) kun ichida Kimmatli qog'ozlar markaziy depozitarийси orqali akциядорнинг mavjud bank hisobvarafiga konunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda avtomatik ravishda t'ulab berilsin;

- foydaning qolgan 438 116 005 565,83 (To'rt yuz o'ttiz sakkiz milliard bir yuz o'n olti million besh ming besh yuz oltmish besh so'm 83 tiyin) yoki 85,00 foiz qismi hamda bankning 2023-yil yakuni bo'yicha taqsimlanmay qolgan 202 848 472 848,58 (Ikki yuz ikki milliard sakkiz yuz qirq sakkiz million to'rt yuz etmish ikki ming sakkiz yuz qirq sakkiz so'm 58 tiyin) so'm miqdoridagi mablag'lar o'tgan yildagi zararlarni qoplashga yo'naltirilsin.

Kun tartibidagi yettinchi masala bo'yicha:

7. "Biznesni rivojlantirish banki" ATBning 2025-yil yakunlari bo'yicha 2024-2026-yillarda rivojlantirish strategiyasi ijrosi to'g'risidagi hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Kun tartibidagi sakkizinchi masala bo'yicha:

8. "Biznesni rivojlantirish banki" ATB Boshqaruvi to'g'risida"gi nizomga kiritilayotgan qo'shimchalar 5-ilovaga muvofiq;

"Biznesni rivojlantirish banki" ATB Kuzatuv kengashi to'g'risida"gi nizomga kiritilayotgan qo'shimchalar 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bank Kuzatuv kengashi va Boshqaruvi zimmlariga bank faoliyatini yuritish va uni boshqarishda amalga kiritilgan Nizomlar asosida ish tashkil qilish vazifasi yuklatilsin.

Kun tartibidagi to'qqizinchi masala bo'yicha:

9. "Biznesni rivojlantirish banki" ATBning "Investment Management Group" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan 2025-yil yakunlari bo'yicha tashkil etilgan Korporativ boshqaruv tizimini baxolash natijalari ma'lumot uchun qabul qilinsin va 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Kun tartibidagi o'ninchi masala bo'yicha:

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-sentabrdagi PQ-312-sonli qarori ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

"Biznesni rivojlantirish banki" ATB ning ustav fondi (ustav kapitali) O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hisobidagi nominal qiymati 119,25 so'm (bir yuz o'n to'qqiz so'm yigirma besh tiyin) so'm bo'lgan 5 953 878 407 (Besh milliard to'qqiz yuz ellik uch million sakkiz yuz yetmish sakkiz ming to'rt yuz yetti) dona egasining nomi yozilgan hujjatsiz shakldagi oddiy aksiyalarni qisqartirish orqali 710 000 000 034,75 (Yeti yuz o'n milliard o'ttiz to'rt so'm yetmish besh tiyin) so'mga kamaytirilsin.

Bunda, topshirilgan aktivlar (ulushlar) va bekor qilinadigan aksiyalarning umumiy summasi o'rtasidagi 34,75 (O'ttiz to'rt so'm 75 tiyin) so'm miqdordagi farq Bankning keyingi ustav fondi o'zgarishida davlat ulushi hisobida inobatga olinsin.

"Biznesni rivojlantirish banki" ATB ning ustav fondi (ustav kapitali) kamaytirilishi munosabati bilan Bankning ustav fondi miqdori 4 979 083 510 289,25 (To'rt trillion to'qqiz yuz etmish to'qqiz milliard sakson uch

million besh yuz o'n ming ikki yuz sakson to'qqiz so'm 25 tiyin) so'mni tashkil etsin va nominal qiymati 119,25 (bir yuz o'n to'qqiz so'm yigirma besh tiyin) so'm bo'lgan 41 744 320 841 (Qirq bir milliard etti yuz qirq to'rt million uch yuz yigirma ming sakkiz yuz qirq bir) dona egasining nomi yozilgan hujjatsiz shakldagi oddiy aksiyalardan iborat etib belgilansin.

"Biznesni rivojlantirish banki" ATB ning 2024-yil 17-oktabrdagi P0006-32-son (identifikatsiya raqami: RU132P0006R7) bilan ro'yxatga olingan qo'shimcha aksiyalar chiqarilishi to'g'risidagi qaroriga tegishli o'zgartirishlar kiritilsin.

Kun tartibidagi o'n birinchi masala bo'yicha:

11. "Biznesni rivojlantirish banki" ATBning ustav fondi (ustav kapitali) kamaytirilishi munosabati bilan bankning Ustaviga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar 8-ilovaga muvofiq tasdiqlansin va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilsin.

Kun tartibidagi o'n ikkinchi masala bo'yicha:

12. "Biznesni rivojlantirish banki" ATBning qo'shimcha aksiyalar chiqarilishi to'g'risidagi qaroriga kiritilayotgan o'zgartirishlar matni 9-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Kun tartibidagi o'n uchinchi masala bo'yicha:

13. "Biznesni rivojlantirish banki" ATBning 2025-yil moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish yakunlari bo'yicha o'tkazilgan tashqi audit xulosasi 10-ilovaga muvofiq ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Kun tartibidagi o'n to'rtinchi masala bo'yicha:

14. Bankning "2026 va 2027-yillar uchun yarim yillik oraliq ixcham konsolidatsiyalangan moliyaviy hisoboti" va "2026 va 2027-yillar uchun yillik konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlari"ni tashqi auditdan o'tkazish xizmatlari uchun eng ko'p haq miqdori 10 000 000 000,0 (O'n milliard) so'm etib belgilansin.

Audit qo'mitasi hamda Kuzatuv kengashi tomonidan taqdim etilgan texnik topshiriqnomalar ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Bank Boshqaruvi (S.Annaklichev) O'zbekiston Respublikasining Davlat xizmatlari to'g'risidagi qonunchiligi hamda taqdim etilgan texnik topshiriqnomalar asosida tashqi auditorlik xizmati uchun xarid tanlovini amalga oshirsin.

Xarid tanlovi natijalariga ko'ra g'olib deb topilgan auditorlik tashkilotini belgilash va u bilan shartnoma tuzish maqsadida, qonunchilikda belgilangan tartibda bank aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi o'tkazilsin.

Bank aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi bayonnomasi 2 (ikki) nusxada tuzildi va 2024-yil 06-iyul da imzolandi.

Umumiy yig'ilish Raisi,
"Biznesni rivojlantirish banki" ATB
Kuzatuv kengashi a'zosi

S.S.Xodjayev

Vig'lash kotibi



2026 yil 08 » 2026
22-05/10056 -sonli

**Ўзбекистон Республикаси
Марказий банкига**

04

Ушбу орқали Сиздан, Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигида
2020-йил 30-июнда 3252-сон билан рўйхатга олинган “Банк фаолиятига
рухсат бериш тартиби ва шартлари тўғрисида”ги низомнинг 165-бандига
асосан “Бизнесни ривожлантириш банки” акциядорлик тижорат банки
уставига киритилаётган ўзгартиришларни рўйхатдан ўтказишга рухсат
беришингизни сўраймиз.

Аризага илова қилинадиган ҳужжатлар рўйхати ____ варақда:

- 1) Уставга ўзгартиришлар киритиш тўғрисидаги банкнинг тегишли
вазирлиги бошқарув органининг қарори (йиғилиш баённомаси) нусхаси.
- 2) Банк Кузатув кенгаши аъзоси имзолаган банк уставига киритиладиган
ўзгартиришлар матни.

Кузатув кенгаши аъзоси

С.С. Ходжаев



Biznesni
Rivojlantirish
Banki

O'zbekiston Respublikasi, 100011,
Toshkent shahri, A.Navoiy ko'chasi, 18-A.
info@brb.uz, www.brb.uz
Telefon: 1254

2026 yil 07.06.24
22-05/11561-sonli

O'zbekiston Respublikasi
Markaziy Bankiga

Ushbu orqali "Biznesni rivojlantirish banki" ATB tomonidan Sizga 2026-yil 8-iyuldagi 22-05/10056-sonli xat bilan taqdim etilgan "Biznesni rivojlantirish banki" ATB Ustaviga kiritilayotgan o'zgartirishlar matni bo'yicha bildirilgan kamchiliklar bartaraf etilganligi sababli, uni ro'yxatdan o'tkazish uchun qayta taqdim etilayotganligini ma'lum qilamiz.

Illova: 34 (o'ttiz to'rt) varaqda.

Boshqaruv raisi
o'rinbosari v.b.

O.R.Voxidov

Tikilgan va raqamlangan

10 (on to'qqiz)

Varaqdan iborat

2026-yil

14-avgust

Imzo

